

**XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT**
(2020- yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- yanvar holatiga 1 893,1 ming kishini tashkil etib, 2020- yil boshidan 26,6 ming kishiga yoki 1,4 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 626,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,1 %), qishloq aholisi soni 1266,3 ming kishini (66,9 %) tashkil etdi.

E'tibor bering
2020-yil yanvar-dekabr


Doimiy aholi soni **26,6 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **41,9 ming nafarni** tashkil etdi, **9,7 ming nafar** vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'limlarida **14,0 mingta nikoh** va **1,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar
(yanvar-dekabr, ming kishi)


	2019- y.	2020- y.
Doimiy aholi soni	1 866,5	1 893,1
Tug'ilganlar	41,1	41,9
Vafot etganlar	8,5	9,7
Aholining tabiiy o'sishi	32,6	32,2
Kelganlar	5,8	5,0
Ketganlar	7,6	10,7
Migratsiya saldos	-1,8	-5,7
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	15,8	14,0
Nikohdan ajralishlar, ming birlk	1,0	1,1
1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille		
tug'ilish	22,2	22,3
o'lim	4,6	5,1
aholining tabiiy o'sishi	17,6	17,2
tuzilgan nikohlar	8,5	7,4
nikohdan ajralishlar	0,6	0,6

XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT*(2020- yil yanvar-dekabr)*


**Hududlar kesimida doimiy aholi soni**
(1-yanvar holatiga)

	2019-y.	2020-y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	1 866,5	1 893,1	101,4
Urganch sh.	143,7	144,9	100,8
Xiva sh.	92,2	93,3	101,2
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	163,8	166,6	101,7
Gurlan	147,7	149,5	101,2
Qo'shko'pir	171,6	173,7	101,2
Urganch	197,5	201,2	101,9
Hazorasp	247,7	195,5	78,9
Tuproqqal'a	-	55,8	-
Xonqa	185,5	188,3	101,5
Xiva	144,9	147,4	101,7
Shovot	169,3	171,7	101,4
Yangiariq	115,6	117,1	101,3
Yangibozor	87,0	88,1	101,3

Hududlar kesimida aholi soni
(yanvar-dekabr)




Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2021- yil 1- yanvar holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %)




Viloyat kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Urganch tumanida viloyat aholisi sonidagi ulushi 10,6 % ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Hazorasp tumani - 10,3 % , Xonqa tumani - 9,9 % va Qo'shko'pir tumanida 9,2 % ni tashkil etgan.

Xorazm viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-dekabr)




Tug'ilish. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 41,9 ming nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarda faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,3 promilleni tashkil etdi hamda 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega oshganligi (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 22,2 promille bo'lgan) kuzatildi.

Shaharlar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2020- yil yanvar- dekabr)



Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm. va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (yanvar- dekabr)



Vafot etganlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 9,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etdi.


Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2020- yil yanvar- dekabr)




Vafot etganlar soni,
kishi




O'lim koeffitsiyenti,
1000 aholiga nisbatan, promille




Shaharlar va tumanlar kesimida go'daklar o'limi soni (2020- yil yanvar-dekabr holatiga, kishida)



O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot (2020- yil yanvar-dekabr)



Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2020- yil yanvar-dekabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,5 % - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,3 % - o'simtalardan, 4,2 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 8,2 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 3,9% -baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,2 % - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 13,7 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 74,7 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 7,2 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 8,8 % - tug'ma anomaliyalardan, 5,0 % - yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 0,4 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 3,9 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Tabiiy o'sish. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 32,2 ming kishini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,4 ming kishiga (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 32,6 ming kishi bo'lgan) kamaygan.

Tabiiy o'sish — 32,2 ming kishi.




Nikoh. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 14,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,4 promilleni tashkil etdi.

Xorazm viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar- dekabr)




Nikohdan ajralishlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,6 promilleni tashkil etdi.

**Shaharlar va tumanlar kesimida nikoh tuzganlar
va nikohdan ajrashganlar soni
(2020- yil yanvar- dekabr holatiga)**



Ajrimlar sonida 2019- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangibozor tumaniga (46,9 %) va Urganch shahariga (12,9 %) to'g'ri kelmoqda.

**Xorazm viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida
ma'lumot (yanvar- dekabr)**



Migratsiya. 2020- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 10,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 5,7 ming kishi

bo'lgan.

Aholi migratsiyasi

ming kishi

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar- dekabr
Ko'chib kelganlar	5,8	5,0
Ko'chib ketganlar	7,6	10,7
Migratsiya saldosı	-1,8	-5,7

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 1,1 ming kishi), Qo'shko'pir (minus 0,9 ming kishi), Shovot (minus 0,6 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Urganch tumanida (plus 0,5 ming kishi) kuzatildi.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
tel : (62)2246508.